



TARIXSIZ KELAJAK YO'Q

Ergashvoy Usarov Kozimovich

Andijon viloyati Izboskan tuman 29-maktab direktori tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqola "Tarixsiz kelajak yo'q" tamoyilini markazga olib, tarixiy xotira va madaniy merosning jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Muallif tarixiy bilimni tiklash va rivojlantirish orqali barqaror kelajak qurish bo'yicha amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: tarix, xotira, madaniy meros, milliy o'zlik, ta'lim, taraqqiyot, modernizatsiya, tarixiy ong, siyosat, yoshlar.

Аннотация: данная статья, сосредоточенная на принципе "Будущего без истории не существует", анализирует роль и значение исторической памяти и культурного наследия в социальном, экономическом и политическом развитии общества. Автор предлагает практические рекомендации по восстановлению и развитию исторических знаний для построения устойчивого будущего.

Ключевые слова: история, память, культурное наследие, национальная идентичность, образование, развитие, модернизация, историческое сознание, политика, молодежь.

Annotation: this article focuses on the principle that "There is no future without history," analyzing the role and importance of historical memory and cultural heritage in the social, economic, and political development of society. The author offers practical recommendations for building a sustainable future through the restoration and development of historical knowledge.

Key words: history, memory, cultural heritage, national identity, education, development, modernization, historical consciousness, politics, youth.

Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. SHuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olaman.

Olimlarimiz tariximizning turli davrlariga doir risolalar yozishmoqda, tarixiy mavzuda yirik nasriy, nazmiy, sahna asarlari yaratilmoqda. Ommaviy axborot vositalari ma'naviy qadriyatlarimizni keng targ'ib qilayotgani, suhbatlar, muloqotlarda fikrlar rang-barangligi paydo bo'layotgani diqqatga sazovor. Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o'zlarini mas'ul sezib, bu bahslarda daxldorlik tuyg'usi bilan ishtirok etayotgani meni, ayniqsa, quvontiradi.

Millat, mamlakat haqida katta-katta minbarlarga chiqib gapirishning o'ziga xos mas'uliyati bor. Muayyan voqea, shaxsga munosabat bildirayotganda, bu faqat bir kishi yoki muayyan toifadagi kishilarning nuqtai nazari bo'lishi mumkinligini unutmaylik. Yomon tomoni shundaki, sub'ektiv fikr yuquvchan bo'ladi. Chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan biryoqlama fikr odamlarni, eng avvalo, tarix o'qituvchilarini chalg'itadi. Ular eshitganlarini haqiqat shu ekan, deb o'quvchilarga ham etkazishadi. Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin. Bu - birinchidan. Ikkinchi masala shundan iboratki, biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz.

Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi etuk odam bo'ladi.

XX asr boshidagi ma'rifatchilik harakati haqida gapirgandim. O'sha harakatning namoyandalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishdimi? Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Tavallolarga maktab ochganlari, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga da'vat etganlari uchun birov maosh to'laganmi? Birov ularga oylik berganmi? Albatta, yo'q! Ular o't bilan o'ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bilaturib, ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar.

Chunki, vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan. Endi asosiy masalaga o'tsak. Xo'sh, tarixning ma'naviyatimizda tutgan o'rni qanday? Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishish mumkinmi?

Albatta, mumkin emas! Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak.

Yuqoridagi mulohazalardan tabiiy ravishda shunday savol tug'iladi: xo'sh, O'zbekistonning, o'zbek xalqining bugun keng ommaga etkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi-yo'qmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman.

O'zgaralar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan?



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo'lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixidan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir. Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz. Lekin Rossiyaning xoh o'tmishdagi, xoh bugungi ko'zga ko'ringan biror bir tarixchisidan so'rab ko'ring-chi, shuni tan olarmikin? Tan olmaydi, bilmaydi, bilishni xohlamaydi ham.

Xo'jarlikning sababi esa bitta: basharti, tan olgudek bo'lishsa, tarixiy xulosalari chippakka chiqadi, ilmida soxta yo'l bilan borganlari fosh bo'ladi. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir.

"Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi. Lekin, yuqorida aytganimdek, biron-bir xorijiy jurnalistning, umuman, o'arb adiblarining "Avesto"ni eslashganini bilmayman. Xulosa shuki, olis-olis joylarda xalqimiz, mamlakatimiz o'tmishi haqida aytilayotgan mulohazalarning aksariyat qismi soxta, g'ayriilmiydir. Davlatchilik bugungi kunda o'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. Nega deganda, O'zbekistonda davlatchilik bo'lmagan, deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo'layotgan, kerak bo'lsa, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor. Bunday g'alamislarning orasida qanday qilib bo'lsa ham bizni yana sobiq SSSRga qaytarish niyatida yurganlar yo'q deysizmi? O'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu da'voning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixini yaratishdir.

Tarixsiz jamiyat o'z o'tganidan saboq ololmaydi, xatolar takrorlanadi va milliy qadriyatlar zaiflashadi. Tarix jamiyatga quyidagi funksiyalarni bajarishda yordam beradi:

- Milliy o'zlikni shakllantirish va saqlash. Tarixiy voqealar, qahramonlar va an'analar millat ruhiyatini mustahkamlaydi.
- Qarorlar sifatini oshirish. Siyosiy va ijtimoiy tajribalarni o'rganish orqali hozirgi muammolarga to'g'ri yechim topish mumkin.
- Ijtimoiy barqarorlik. Tarixiy xotira mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishda ham, adolatni tiklash jarayonida ham muhim.
- Iqtisodiy manfaatlar. Madaniy meros va tarixiy saytlar turizm va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantiradi.

Tarixiy xotira shaxs va jamiyatning o'zligini anglashida muhim rol o'ynaydi. O'tgan tajribalar orqali millat qadriyatlari, ijtimoiy normalar va huquqiy institutlar shakllanadi. Tarixiy ma'lumotlar manipulyatsiyasiga yo'l qo'yilganda esa ijtimoiy keskinliklar ortishi mumkin. Shu sababli tarixiy haqiqatni himoya qilish, arxivlarni saqlash va tadqiqotlarni rag'batlantirish dolzarbdir.

Maktab va oliy ta'limda tarixiy bilimni yangicha yondashuv bilan o'qitish zarur:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

- Faktlar yodlashdan ko'ra tahliliy yondashuvni kuchaytirish, sabab-va-natija aloqalarini o'rgatish.
- Mahalliy tarixni o'rganishga urg'u berish — maktablar atrofidagi tarixiy obektlar, veteranning hikoyalari, og'zaki tarix resurslarini ta'limga jalb etish.
- Raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv darslar va onlayn arxivlar yaratish. Texnologik va iqtisodiy modernizatsiya davomida an'analar va tarixiy qadriyatlarni saqlab qolish muhim. Yangi tartiblar an'anaviy ijtimoiy institutlar bilan ziddiyatga tushmasligi uchun quyidagilar talab etiladi:
 - Ijtimoiy maslahatlashuv va ishtirok etuvchi siyosat yuritish.
 - Madaniy merosni restavratsiya va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish orqali mahalliy jamoalarni jalb etish.
 - Yangiliklarni mahalliy kontekstga moslashtirish, global me'yorlarni inkor etmasdan milliy xususiyatni saqlash. Barqaror kelajak uchun tarixiy xotirani mustahkamlash bo'yicha muammoli va amaliy choralar:
 - Arxivlarni raqamlashtirish va erkin foydalanishga ochish, tarixshunoslikka investitsiyalarni oshirish.
 - Maktab dasturlarida mahalliy tarix va madaniyat modullarini kiritish hamda o'qituvchilar malakasini oshirish.
 - Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va turizmni barqaror rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash.
 - Jamoatchilik xabardorligini oshirish kampaniyalari — muzeylar, tarixiy festivallar, otashinlar bilan muloqot. Tarixsiz jamiyat o'z o'tganidan saboq ololmaydi, xatolar takrorlanadi va milliy qadriyatlar zaiflashadi. Tarix jamiyatga quyidagi funksiyalarni bajarishda yordam beradi:
 - Milliy o'zlikni shakllantirish va saqlash. Tarixiy voqealar, qahramonlar va an'analar millat ruhiyatini mustahkamlaydi.
 - Qarorlar sifatini oshirish. Siyosiy va ijtimoiy tajribalarni o'rganish orqali hozirgi muammolarga to'g'ri yechim topish mumkin.
 - Ijtimoiy barqarorlik. Tarixiy xotira mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishda ham, adolatni tiklash jarayonida ham muhim.
 - Iqtisodiy manfaatlar. Madaniy meros va tarixiy saytlar turizm va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantiradi.
- Tarixiy xotira shaxs va jamiyatning o'zligini anglashida muhim rol o'ynaydi. O'tgan tajribalar orqali millat qadriyatlari, ijtimoiy normalar va huquqiy institutlar shakllanadi. Tarixiy ma'lumotlar manipulyatsiyasiga yo'l qo'yilganda esa ijtimoiy keskinliklar ortishi mumkin. Shu sababli tarixiy haqiqatni himoya qilish, arxivlarni saqlash va tadqiqotlarni rag'batlantirish dolzarbdir.
- Maktab va oliy ta'limda tarixiy bilimni yangicha yondashuv bilan o'qitish zarur:
 - Faktlar yodlashdan ko'ra tahliliy yondashuvni kuchaytirish, sabab-va-natija aloqalarini o'rgatish.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

- Mahalliy tarixni o'rganishga urg'u berish — maktablar atrofidagi tarixiy obektlar, veteranning hikoyalari, og'zaki tarix resurslarini ta'limga jalb etish.

- Raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv darslar va onlayn arxivlar yaratish. Texnologik va iqtisodiy modernizatsiya davomida an'analar va tarixiy qadriyatlarni saqlab qolish muhim. Yangi tartiblar an'anaviy ijtimoiy institutlar bilan ziddiyatga tushmasligi uchun quyidagilar talab etiladi:

- Ijtimoiy maslahatlashuv va ishtirok etuvchi siyosat yuritish.

- Madaniy merosni restavratsiya va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish orqali mahalliy jamoalarni jalb etish.

- Yangiliklarni mahalliy kontekstga moslashtirish, global me'yorlarni inkor etmasdan milliy xususiyatni saqlash. Barqaror kelajak uchun tarixiy xotirani mustahkamlash bo'yicha muammoli va amaliy choralar:

- Arxivlarni raqamlashtirish va erkin foydalanishga ochish, tarixshunoslikka investitsiyalarni oshirish.

- Maktab dasturlarida mahalliy tarix va madaniyat modullarini kiritish hamda o'qituvchilar malakasini oshirish.

- Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va turizmni barqaror rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash.

- Jamoatchilik xabardorligini oshirish kampaniyalari — muzeylar, tarixiy festivallar, otashinlar bilan muloqot.

- Tarixiy ma'lumotlarni manipulyatsiyadan himoya qilish uchun mustaqil ilmiy ekspertiza va qonuniy mexanizmlar yaratish.

- Yoshlarni tarixiy tadbirlarga jalb etish uchun raqamli platformalar, o'yinlar va interaktiv loyihalarni qo'llash. Tarixni e'tiborsiz qoldirish — kelajakka begona bo'lib qolish demakdir. Tarixiy xotira milliy o'zlikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va mantiqiy siyosat yuritishda asosiysi hisoblanadi. Davlat, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor hamkorligi orqali tarixiy ma'lumotlarni saqlash va yetkazish tizimini mustahkamlash zarur. Shundagina haqiqiy, barqaror va ma'naviy jihatdan boy kelajak qurish mumkin.

- Tarixiy ma'lumotlarni manipulyatsiyadan himoya qilish uchun mustaqil ilmiy ekspertiza va qonuniy mexanizmlar yaratish.

- Yoshlarni tarixiy tadbirlarga jalb etish uchun raqamli platformalar, o'yinlar va interaktiv loyihalarni qo'llash. Tarixni e'tiborsiz qoldirish — kelajakka begona bo'lib qolish demakdir.

Tarixiy xotira milliy o'zlikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va mantiqiy siyosat yuritishda asosiysi hisoblanadi.

Davlat, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor hamkorligi orqali tarixiy ma'lumotlarni saqlash va yetkazish tizimini mustahkamlash zarur. Shundagina haqiqiy, barqaror va ma'naviy jihatdan boy kelajak qurish mumkin.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Azizxo'jayev A. A. Mustaqillik kurashlar, iztiroblar, quvonchlar Toshkent, 2001
2. Azizxo'jayev A. A. Chin o'zbek ishi Toshkent, 2003.
3. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida Toshkent: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2002.
4. Islomov Z. M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari Toshkent O'zbekiston, 2005.
5. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida Toshkent: UZ
6. O'zbekiston, 2005 il. Usmonov O O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi -Toshkent Moliya, 2003.